



O'YIN O'YNATISH ORQALI BOLALARGA XORIIJY TILLARNI O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Mullayeva Mamura Abduraxmonova

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hozirgi zamон rus tili kafedrasи
o'qituvchisi*

Sadullayeva Madinabonu

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti fakulteti
o'quvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda yurtimizdagи eng ko'p e'tibor qaratilayotgan masalalardan biri , Chet tillarini o'qitishda tez va samarali usullarini qo'llashga doir bir usulni, yani o'yin o'ynatish orqali bolalarga tez va qulay tarzda xorijiy tillarda ko'nikma va malakani shakillantirishning afzallik va qulayliklari, hamda erishilishi mumkin bo'lgan yutuqlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'yin orqali tillar o'rganish, mustahkam o'zlashtirish, o'ziga motivatsiya olish, tilning amaliy qo'llanilishi, o'z-o'zini baholashni shakillantirish, qiziqish, strategic, fikrlash.

KIRISH: Ingliz tili o'qitish metodikalari- bu til o'rganuvchilariga ingliz tili va shu kabi xorijiy tillarni tez va oson o'rgatishning turli yondashuvlarini tanlashda yordam beradi. Bugungi kunda O'yin orqali til o'qitish eng ommalashgan usullardan biri sanaladi.O'yin asosida o'qitish (game-based learning) Bu yondashuvda o'yin elementlaridan foydalanib , til o'rganish jarayonini qiziqarli,jonli ,hayajonli ,oson va interaktive qilishga qaratilgan. O'yinlar til o'rganuvchilarini rag'batlantiradi va ularning til o'rganishdagi qiziqishlarini oshiradi . O'yin asosida til o'qitish metodikasi , o'qituvchilarga til o'qitishda yangi yondashuvlarni qo'llash orqali til o'rganuvchilarining o'rganish tajribasini boyitish imkonini beradi.

ASOSIY QISM: O'yin asosida til o'qitish metodikasi (Game-based Learning ,GBL)- BU til o'rganuvchilariga tilni o'rganish jarayonini qiziqarli va interactive qilib taqdim etish maqsadida o'yinlar elementlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.Bu metodika til o'rganuvchilarining motivatsiyasini oshirish, til o'rganishdagi stressni kamaytirish va o'rganishdagi stressni kamaytirish va o'rganish jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. O'yin asosida til o'qitishning quyidagicha ijobjiy taraflari mavjud:

INTERAKTIVELIK: O'yinlar dars davomida xorijiy til o'rganuvchilarini dars davomida faol bo'lismiga undaydi. Bu esa til ko'nikmalarining mustahkam o'zlashtirilishiga yordam beradi.

MOTIVATSIYA:



O'yinlar mukofot olish, omma oldida (guruhdoshlari, kursdoshlari, jamoadooshlari) maqtov eshitish, reytinglar va yutuqlar kabi rag'batlantirilishlar natijasida bolalar til o'rganishga motivatsiya oladi .Bu esa o'z ornida dars davomida o'rganuvchilarni tezda zerikib qolishlarini oldini oladi.

AMALIY TIL QO'LLANILISHI:

Dars davomida o'ynaladiga o'yinlarni real hayotdagি vaziyatlarga nisbatan modellashtirish mumkin.Buning natijasida esa chet tillarini o'rganayotgan o'quvchilarini haqiqiy hayotda ham o'rganayotgan tillarini amaliyotda qo'llashlari ehtimol mavjud (dars davomida ,misol uchun o'tilayotgan mavzu sonlar va bolalar orasida sotvuchi va xaridor munosabatini ifodaluvchi dialog qilish mumkin).

O'Z-O'ZINI BAHOLASH: O'yinlar orqali til o'rganuvchilar o'zlarining dars mavzularini qay darajada o'zlashtirganliklarini bilib olishlari va oqsoqlanayotgan joylarini aniqlashlari va xatolarini tuzatishni o'rganishi mumkin.

QIZIQISH:

O'YINLAR til o'rganish jarayonini qiziqarli va ijobiy kayfiyatda o'tilishini taminlaydi, bu esa xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi.

XULOSA:

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, o'yin asosida chet tillarini o'rganish, tillarning o'rganuvchilariga tilni o'rganishning qiyinchiliklarini engib o'tishda yordam beradi,strategic fikrlashni shakillantiradi,sog'lom raqobat muhitida ishlashga o'rgatadi, o'zini omma oldida ifoda eta bilish qobiliyatini shakillantiradi, jamoa bilan ishlash mahororatini rivojlatirishga ko'maklashadi,turliy vaziyatlardan chiqib ketish va real hayotda o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan qo'llay bilish qobiliyatini shakillantiradi.Umumiy qilib aytganda, bu usul tl o'rganuvchilarga qator foydalarni yaratadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Games for Language Learning " by Andrew Wright, David Betteridge ,Michael Buckby . Cambridge University Press nashriyoti
2. <https://moluch.ru>
3. <https://cyberleninka.ru>